

BALKONLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Safarova Inobat Achilovna

"Arxitektura" kafedrasi o'qituvchisi SamDAQU

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy fitodizaynning o'simlik kompozitsiyalarining turlari, turli kompozitsiyalarni o'zaro moslashtirishda inter`erni ko'kalamzorlashtirish loyihasi muhumligi hamda fitodizaynda alohida tabiiy va sun'iy materiallardan iborat interer elementlari qo'llanilishi keltirilgan.

Kalit so`zlar: Fitodizayn, o'simlik kompozitsiyalari, gullar, interer elementlari, shoxchalar, g'unchalar, ildizlar, kollaj, panno.

Kirish. Balkon va derazalar – ko'kalamzorlashtirishda eng muhim joylardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat intererni o'zgartirishi, balki binoning umumiy tashqi ko'rinishini ham o'zgartirishi mumkin.

Maxsus gul qutisida katta bo'limgan gulzorni yaratish mumkin. Qoida bo'yicha, bunday qutilarni balkonlar, lodjiyalar, terrasalar yoki deraza peshtaxtalarida joylashtirish mumkin. Qutining chuqurligi va kengligi 20 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Qutilarda bir yillik, ikki yillik va ba'zi ko'p yillik o'simliklarni o'tqazish mumkin. Eng avvalo qutiga drenaj solib, keyin tuproq to'kish kerak. Tuproq aralashmasi turli komponentlardan tarkib topib, yumshoq, namlikni sig'diradigan va suv o'tkazadigan bo'lishi lozim. odatda aralashma tarkibi kamroq torf va daryo qumlari aralashtirilgan chirigan o'tli tuproqdan tashkil topadi. Chegaralangan muhitda o'simliklar juda o'sib ketmasligi uchun balkon qutilarining tuprog'iga organik o'g'itlarni ko'p solmaslik kerak.[1].


O'simlik urug'ini balkon qutilariga erta bahorda ekish lozim. Buning uchun qutining ko'cha tomonga qaragan chetidan 5-7 sm qoldirib, ikkita jo'yacha tortiladi (jo'yachalarning oralig'i ham 5-7 sm), ularning chuqurligi urug'ning o'lchamlariga bog'liq. Jo'yalarni sug'orib, urug'lar uchun uyachalar yaratiladi. Uyachalarni bir-biridan 10-12 sm masofada yasab, har biriga bir nechtadan urug'ni qo'yib chiqiladi, Ikkinchchi qatorning uyachalarini shaxmat tarzida yashash kerak. Urug' qadalib bo'lganidan so'ng

uyalar yopiladi. Unib chiqqan o'simlik biroz quvvatga kirganidan keyin, agar bir joydan ikkitadan ko'p o'simlik unib chiqqan bo'lsa, ortig'ini olib tashlanadi. o'simliklar gullash oldidan qutiga tiqilib qoladigandek bo'lsa, bir nechtasini ehtiyyotlik bilan pichoq yoki boshqa o'tkir kesadigan predmet bilan kesib tashlash kerak. Ammo boshqalarining ildiz tizimini buzmaslik uchun, hech qachon tortib olib tashlash mumkin emas.

Agar balkon qutilarida o'simlikning ko'chati o'tqazadigan bo'linsa, ularni boshidanoq bir-biridan yetarli darajadagi masofada joylashtirish lozim. Qutilarda o'simlikning oziqlanish maydoni ochiq yerga nisbatan kamroq bo'ladi, shuning uchun o'simliklarni zichroq, odatda bir-biridan 12-15 sm masofada joylashtiriladi.

Qutilarda tuproq yumshoq bo'lishi lozim: sug'organda yoki oziqlantirgandan keyin uning usti qotmasligi kerak. Balkon qutilaridagi va vazonlarning tuprog'i maxsus sanchqich yoki o'tkir tayoqcha bilan yumshatiladi, ammo bu ishda o'ta ehtiyyotkorlik talab qilinadi: o'simliklarning ildiziga ozor etkazmasdan, sanchqich chuqurligini doimiy nazorat qilib borish lozim. Qurigan barglarni ham olib tashlash kerak. Bunday muolajalar sug'orish va oziqlantirish bilan birgalikda gulning yangi novdalarining paydo bo'lishini va keyingi gullahshini ta'minlaydi. [2].

Chirmashib o'suvchi va ampel o'simliklar uchun kashpo turidagi guldonlar va leska, setka, karkaslar, stellajlar va boshqa turdag'i tayanchlardan foydalanish tavsiya etiladi.



1-rasm. Balkonlarni o'simliklar bilan bezashda kashpo turidagi guldonlar va leska, setka, karkaslar, va stellajdan iborat tayanchlarning ko'rinishlari.

Balkonlar, terrasalar, derazalar oldidagi qutilar va vazonlarda yozgi gullarning juda katta assortimentini o'stirish mumkin. Ageratum, barxatsi, ipomeya, lobeliya, lviniy zev, nastursiya, petuniya, salviya, loviya bunga misol bo'la oladi. Shuningdek balzamin, chinnigul, xushbo'y no'xot, xushbo'y tamaki, mitti georgina, levkoy, floks Drummonda, siniyani ham yetishtirish mumkin.

Shimolga qaragan balkonlarda ayniqsa tamaki yaxshi o'sadi. Janubga qaragan eng issiq balkonlarda esa - lviniy zev, petuniya, salviyani ekish maqsadga muvofiqdir. Xushbo'y no'xot, ayniqsa, shimoliy-sharqiy va janubiy-sharqiy ekspozitsiyalarda qiyg'os gullaydi. Agar balkon, terrasa, deraza oldidagi qutilarda yoyilib o'suvchi o'simliklar – xushbo'y no'xot, ipomeya, loviya ekilsa, ularni bog'lash talab qilinadi. Bog'lashni turli usullar bilan amalga oshirish mumkin, ammo bitta qoidaga qattiq rioya qilish kerak: novdalarning hammasini qamrab olish va ularga shikast etkazmaslik uchun bog'lashni ertaroq boshlash kerak. [2].

Balkon qutilarida o'simliklar ochiq yerga nisbatan tezroq gullaydi va erta gullahdan to'xtaydi. Gullah davrini uzaytirish uchun gullab bo'lganlarini kesib tashlab turish lozim. Ikki yillik gullardan qutilarda, ayniqsa, anyutini glazki va margaritka dekorativ ko'rinishga ega bo'ladi. Ammo yozning o'rtasida ular gullahdan to'xtaydi, shuning uchun boshqa gullar bilan almashtirishga to'g'ri keladi.

Ko'p o'simliklarni, ayniqsa, yozgi o'simliklarni tuvaklarda o'stirib, ular bilan balkon va derazalarni bezash mumkin. o'simliklar tuvaklarga xuddi qutilardagi kabi o'tqaziladi va xuddi shu tuproq aralashmasidan foydalanib, odatda bitta gul ekiladi, faqatgina diametri 20 sm dan katta bo'lган juda katta tuvaklarda ikki-uchtalab o'simlik o'tqaziladi.

Katta tuvaklarda ko'chat ekish yaxshiroq hisoblanadi. Ularni parvarishlashda xonaning eng yorug' joyi – deraza oldida yoki derazaning peshtaxtasi oldidan joy berish lozim. o'simlik chiroyli va kompakt o'sishi uchun, faqat yorug'likka qaragan novdalari o'sib, qolganlari qolib ketmasligi uchun tuvakni vaqt-vaqt bilan aylantirib turish lozim.

Balkonlar va terrasalarda o'simlik tuvaklarini kronshteynlar yoki devordagi kashpoga osish, deraza yoki panjara oldiga qo'yish mumkin. Mahkamlash usullari turli-tuman bo'lishi mumkin. [4].

Adabiyotlar

1. Asmann. P. Zamonaviy floristika / P. Asmann. – M.: 2005 y.
2. Bixovets, L. I. Xona va bog 'o'simliklari / L. I. Bixovets, V. M. Goncharuk. – Minsk: Xarvest, Kultura i traditsii, 2004 y.
3. K.D.Raximov, Bog‘-parklarning zamonaviy yo‘nalishlari. o‘quv qo‘llanma. “Mashxur-press”. Toshkent, 2017 yil.
4. K.D.Raximov, **Landshaft rejalarshirish.** o‘quv qo‘llanma. «Barkamol fayz media», Toshkent, 2018 yil.
5. Gayratovna, I. D., & Zilola, A. (2022). Leisure Parks in the Regional Centers of the Samarkand Region. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 68-69.
6. Djalolovich, R. K., & Achilovna, S. I. (2024). ZAMONAVIY FITODIZAYNNING SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH TAMOYILLARI. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology* (2995-486X), 265-268.